

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK

N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SEN/SIZ MUROJAAT SHAKLLARI
ФОРМЫ ОБРАЩЕНИЯ «ТЫ/ВЫ» В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

FORMS OF ADDRESS «YOU/YOU» IN UZBEK AND GERMAN

Kaxarov Qobiljon Shuhrat o'g'li¹, Saidaxon Mustafoyeva²

¹Kaxarov Qobiljon Shuhrat o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti nemis va fransuz tillari kafedrası dotsenti v.b.

²Saidaxon Mustafoyeva

– Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va nemis nutqiy etiketlaridagi sen/siz murojaat shakllari, ularning qollanilish vaziyatlariga doir badiiy asarlardan keltirilgan turli misollar va ularning ikki millat vakillarining hayotida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi, "siezzen" (sizlash), "duzen"(senlash) qachon va qanday holatlarda qo'llanilishining o'ziga hos hususiyatlari, jumladan, oilada ota-onaga, opa-singil, aka-uka va qarindoshlarga murojaat qilishdagi ikki xalq nutqidagi ikki turli vaziyatlar, rasmiy doiralarda qanday murojaat shakllaridan foydalanish kabilari, ikki millat kommunikantlari o'rtasida hurmat, yaqinlikni ifodalab keluvchi "du-sen" va "Sie-Siz" kabi murojaat shakllarining kundalik turmushda qo'llanilishi, ularning umumiy, hamda o'xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье формы обращения «ты/Вы» в узбекском и немецком речевом этикете, различные примеры ситуаций их употребления из художественных произведений и их значение в жизни представителей двух национальностей, «siezzen» (обращение на Вы), «duzen» (обращение на ты) особенности того, когда и в каких ситуациях он употребляется, в том числе две разные ситуации в речи двух народов при обращении к родителям, родным братьям и сестрам, родным и близким в семье, какие формы обращения используются в официальных кругах, к коммуникантам двух народов. Выявлены употребление таких форм обращения, как «du-sen» и «Sie-Siz», выражающих уважение и близость в быту, а также их общие, сходные и различные аспекты.

Abstract

In this article, the forms of address "you/you (polite form)" in Uzbek and German speech etiquette, various examples of situations of their use from works of art and their significance in the life of representatives of two nationalities, "siezzen" (addressing you), "duzen" (addressing you in polite form) features of when and in what situations it is used, including two different situations in the speech of two peoples when referring to parents, siblings, relatives and friends in the family, what forms of address are used in official circles, to communicants of the two peoples. The use of such forms of address as "du-you" and "Sie-You", expressing respect and closeness in everyday life, as well as their common, similar and different aspects, is revealed.

Kalit so'zlar: du, sen, Sie, siz, ihr, sizlar, Sizlash, senlash, muloqot, murojaat

Ключевые слова: du, ты, Sie, Вы, ihr, вы, обращение на вы, обращение на ты, общение, обращение.

Key words: du, you, you, ihr, appeal to you, appeal to you, communication, appeal.

KIRISH

Inson ma'lum jamiyatda yashar ekan, tabiiyki, insonlar bilan muloqot qiladi va ushbu jarayonda beixtiyor tinglovchiga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Insonning o'zini tutishi, muomala madaniyati hamda nutqiy odob-axloq qoidalariga qay darajada amal qilishi uning qanchalik yuksak madaniyat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Har bir millat tilshunosligida o'ziga xos va mos bo'lgan nutqiy etiket qoidalari mavjud ekanligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, hozirgi zamonaviy jahon tilshunosligida ikki til doirasidagi qiyosiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu millatlar o'rtasida madaniy hamda ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunga qadar bir-biridan uzoqda yashovchi o'zbek va nemis xalqining nutqiy etiket qoidalari qiyosiy tadqiqi bo'yicha bir qancha olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan va ikkala tildagi "Sen/siz" murojaat shakllari atroflicha tadqiq etilgan. [1.145] Biz ham mazkur maqola orqali o'zbek va nemis tillaridagi sen/siz murojaat shakllarining ba'zi bir hususiyatlari atroflicha tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumki, o'zbek tilida muloqot jarayonida tinglovchiga hurmat yuzasidan "siz", yoki yaqin, qadrdon tanishlar bo'lsa "sen" deb murojaat qilinadi. Ushbu murojaat shakllariga "O'zbek tilining izohli lug'ati" orqali quyidagicha ta'rif berib o'tadi:

"Sen – kishilik olmoshi, ikkinchi shaxs, birlik.

1. O'zidan kichik, yaqin kishiga murojaatda ishlatiladi.

2. Ko'pchilikka murojaatda dag'allik va mensimaslikni bildiradi.

Siz – kishilik olmoshi, ikkinchi shaxs, ko'plik.

1. Ko'pchilikka murojaatda ishlatiladi.

2. O'zidan katta kishiga va, umuman, har qanday shaxsga nisbatan hurmatni bildiradi."

[4.680]

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida keltirishimiz mumkinki, "sen" murojaat shaklini atrof-muhitdagi ba'zi hodisa yoxud jonsiz narsalarga nisbatan ham ishlatilish holatlari ham kuzatiladi: "Sen o'zing aytgil, Vatan!" (M.Yusuf)

Bundan tashqari "siz" shakli ham muloqotda jonsiz narsalarga nisbatan ishlatiladi, bunday holatda nutq ko'plik shaklidagi ma'lum bir obyektga qaratilgan bo'ladi: "Yuzingiz bir ko'rmay sira o'lgim kelmas, Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr!" (M.Yusuf)

Nemis tilida esa o'zbek tilidagi sen/siz murojaat shakllaridan farqli jihatlar mavjud. Masalan, murojaatning "Du" (sen), "ihr" (sizlar), "Sie" (Siz) kabi shakllari nemis tilida faol qo'llanilib kelinadi."Nemis tilining izohli lug'ati" 2 da bu leksik birliklarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Du – 1.verwendet als vertraute Anrede an eine Person(ein Kind, einen Verwandten oder Freund): Hast **du** Lust, ins Kino zu gehen?; Bist **du** krank, Luise? 2.verwendet als Anrede zu Tieren oder Dingen: Du blöder Computer, musst du jetzt kaputt gehen!3.verwendet als unpersönliches Pronomen ~ man: Mündliche Prüfungen sind ganz schwer – du bist aufgeregt und kannst kaum was sagen?! (**Sen** – 1.Yaqin insonlarga murojaat qilishda (farzand, qarindosh yoki do'stga): **Sen** kinoga borishni xohlaysanmi?; **Sen** kasalmisan, Luiza? 2. Hayvonlar yoki buyumlarga nisbatan ishlatiladi: **Sen** ahmoq kompyuter, hozir buzilishing kerak! (kinoya ma'nosida) 3. Shaxssiz olmoshi – „man“ o'rnida qo'llanadi: Og'zaki imtihonlar juda qiyin – **sen** hayajonlanayapsan, nima deyolasan?!)

Ma'lumki, nemis xalqida ota-ona, farzandlar, qarindoshlarga, xoh u katta bo'lsin, xoh kichik „**du –sen**“ deb murojaat qilish meyor sanaladi. Shu sababdan ham „du“ murojaat shaklidan ko'proq foydalanish holatlarini ko'p kuzatamiz. „Du“ leksemasining uchinchi izohida nemis tilida mavjud bo'lgan „man“ o'rnida ishlatish holati berilgan, na'muna sifatida berilgan gapda 1-shaxs imtihon oldidan o'z-o'ziga „du-sen“ gapirish holati berilgan.

Ihr¹ –*der 2.Person pl*; verwendet, um eine Gruppe von Personen anzureden, von denen man (fast) alle mit du anredet: Kommt ihr mit zum Baden?; Na, ihr beiden, Hübschen, wie geht es euch? **Ihr**² – *der 2. Person sg, Höflichkeitsform, veraltet*; verwendet als höfliche und respektvolle Anrede für eine einzelne Person, z.B. einen Richter oder König = Sie: Habt ihr wohl geruht, Euer Gnaden? [4.588] (**Sizlar**¹ –2-shaxs ko'plik; insonlar guruhiga nisbatan qo'llanadi, qaysiki ularning deyarli barchasiga alohida murojaat qilganda „sen“ deb gapirsa: Cho'milishga borasizlarmi?; Ha, sizlar, ikkala go'zallar, qalaysizlar? **Sizlar**² – 2-shaxs ko'plik, hurmat shakli, eskirgan; bir shaxsga alohida hurmat va muloyimlik bilan murojaat qilganda, masalan, qirol yoki hakamga: Yaxshi dam oldingizmi, Euer Gnaden?)

Nemis tilidagi „ihr“ so'zi nafaqat murojaat shakli, balki egalik olmoshlari sifatida ham ishlatiladi. Bunda 3-shaxs kishilik olmoshi „sie“ (jenskiy rod uchun –u) va yuqorida izohlab o'tilgan 2-shaxs ko'plik kishilik olmoshi „ihr“ (sizlar) ning egalik shaklida qo'llanadi. Misol uchun, ihr Name (uning ismi) – ihre Namen (sizlarning ismlaringiz), ihr Heft (uning daftari) – ihre Hefte (sizlarning daftarlaringiz), ihr Buch (uning kitobi) – ihre Bücher (sizlarning kitoblaringiz), ihre Blume (uning guli) – ihre Blumen (sizlarning gullaringiz).

Nemis tilini ilk bor boshlaganlar uchun bu olmoshlarni qo'llashda muammolar yuzaga kelishi mumkin, bunday holatlarda ma'no va mazmun jihatdan farqlash uchun ,asosan, konteksga e'tibor qaratish kerak.

„Sie“ so'zi eng ko'p hollarda 3-shaxs kishilik olmoshi „U“ ma'nosida keng qo'llanadi, shu bilan birga yoshi katta yoki lavozim jihatdan yuqorida bo'lgan shaxslarga nisbatan va rasmiy munosabatlarda „siz“lab murojaat qilishda foydalaniladi. Izohli lug'atda „Sie“ (Siz) so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

Sie – verwendet als höfliche Anrede: Guten Tag, *Frau Bauer*, kommen *Sie* herein; Möchten *Sie* etwas trinken? Meine Damen und Herren, darf ich *Sie* ins Nebenzimmer bitten? (**Siz** –hurmat bilan murojaat etishda qo'llanadi: Hayirli kun, Bauer xonim, ichkariga kiring; Nimadir ichishni xohlaysizmi? Xonimlar va janoblar , *siz*larni narigi xonaga taklif qilsam bo'ladimi?)

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ko'rib turganimizdek, nemis tilida „Sie“ so'zi orqali kommunikatsiya jarayonida hurmat semasi paydo bo'ladi va bu nutqni ta'sirchan hamda jozibali bo'lishida katta va muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek xalqi nutq madaniyatida ham sen/siz munosabatlari muhim o'rin tutadi. Nemis xalqidan farqli o'laroq, ota-ona, opa-singil yoxud qarindoshlarga „siz“lab murojaat etiladi, umuman olganda, murojaatda yoshining katta-kichikligiga e'tibor qaratiladi. Odatda, ota-onalar farzandini „sen“ deb chaqirishi meyor sanaladi, lekin shuni ham aytib o'tish joizki, istisno holatlari ham mavjud ya'ni, farzandini erkab, sizlab chaqirishlari ham mumkin.

-O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydik... (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

-Ana, Kumush, sen eshitdingmi, opangning so'zini. To'ybeka senga er topqan, sen esa boshim og'riydir, deb yotasan. (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

Farzandlar, albatta, ota-onasini sizlab chaqiradilar, bu holat o'zbek mentalitetiga xos bo'lib, diniy qarashlarga ham bog'liqdir. Dinimizda ota-onani hurmat qilishga va ularning roziligini olishga da'vat etilgan, shuning uchun ham ota-onaga qo'pol muomala qilish qattiq qoralanadi.

Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazilashib: Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim“, degandingiz. Men: „Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?“ degan edim.(Dunyoning ishlari)

Ota-onaning farzandini „senlab“ chaqirishi, nutqda hech qanday qo'pollik tug'dirmaydi. O'zbek oilalarida aka-uka, opa-singil munosabatlari ham muhim o'rin tutadi va bolalarga yoshligidan o'zidan katta bo'lgan opa-akasiga doimo hurmatda bo'lishi va „sizlab“ muomala qilishi uqtililadi. Lekin ba'zi hollarda aka-opasi bilan „sensirab“ gaplashadiganlarni ham kuzatamiz, umuman olganda, bu holatni ham tamoman noto'g'ri deyolmaymiz. Quyidagi jadval orqali o'zbek nutqiy etiketida sizlash va senlash qarama-qarshiligi qisqacha izohlangan va u quyidagicha:

Sizlab murojaat qilish	Senlab murojaat qilish
Ota-ona, qaynona va qaynotaga	O'zidan kichik uka-singlisiga
O'zidan katta aka-opasiga	Ayoliga
Notanish insonga (yoshi ahamiyatsiz)	Do'stlarga
Turmush o'rtog'iga (asosan,eriga)	Yaqin hamkasblarga (ko'p hollarda sizlab murojaat qilinadi)
Qarindoshlariga(yoshi katta)	O'quvchilariga o'qituvchi tomonidan(kamdan-kam hollarda)
Turmush o'rtog'ining barcha qarindoshlariga (yoshidan qat'iy nazar)	
Hamkasblarga	

Jadvalda tasvirlanganidek sizlab murojaat qilish holatlari o'zbek xalqida ko'proq kuzatiladi. Notanish kimsaga, xoh u katta bo'lsin ,xoh kichik „senlab“ gapirilmaydi, bu odob-axloq qoidalariga umuman to'g'ri kelmaydi. O'zbeklar nutqiy etiketida er-xotin munosabati ham muhim ro'l o'ynaydi. O'zbek ayollari, tabiiyki, o'z turmush o'rtog'larini „sizlab“ chaqiradilar va bu diniy qarashlarga ham bog'liqdir. Ma'lumki, islom dinida erkak kishi doimo ulug'lanib, ayoldan yuqori darajada turishi ta'kidlangan. Erkaklar esa turmush o'rtog'larini xohlarsa sizlab, xohlarsa sensirab chaqirishlari mumkin. Qadimdan ota-bobolarimiz ayollarini sizlab, e'zozlab kelganlar va bu hozirgi kunda ham ba'zi xonadonlarda saqlanib qolgan. Ko'pincha esa erkaklar ayollarini „sen“ deb chaqirish holatlari kuzatiladi va bu hozirgi kunda normal holat sanalib, hech kimni ajablantirmaydi. Xonadonga yangi kelgan kelin nafaqat kuyovning oila a'zolarini, balki barcha qarindoshlarini ham hurmat-ehtirom bilan „sizlab“ chaqirishi kerak.

Nemis xalqida er-xotin munosabati o'zbek xalqidan tubdan farq qiladi, chunki nafaqat Germaniyada , balki barcha Yevropa mamlakatlarida er-xotin bir-biriga „senlab“ murojaat qiladi va bu meyor sanaladi. *Wohin gehst du jetzt, mein Schatz? (Qayerga ketyapsan, xazinam?)*

Ko'rinib turganidek, "sizlash"dan ko'ra "sen" deb murojaat qilish er-xotin o'rtasidagi yaqin munosabatni bildirib kelmoqda va bu nutqda hech qanday qo'pollik vaziyati sezilmaydi. Ko'p hollarda nemis nutqiy etiketida "Siezen"(sizlash)dan ko'ra "Duzen"(senlash) qo'llaniladi. Masalan, o'zbek millatida o'zidan yoshi katta bo'lgan aka-opasiga, qarindoshlariga, eng asosiysi, ota-onasiga "siz" deb murojaat qilinadi. Agar bu qoidaga rioya qilinmasa, bu holat o'zbek xalqida qattiq qoralangani sababli atrofda qilargalarga yoqimsiz tuyuladi. Nemis xalqida esa buning aksini ko'rish mumkin. Ota-onasiga, bobo-buvisiga, qarindoshlari, tanishlariga doimiy ravishda "sen" deb murojaat qilinadi. *Was suchst du. Mama? (Oyi, nima qidirapsan?)*

Quyidagi jadvalda nemis nutqiy etiketidagi "siezen" (sizlash) va "duzen"(senlash) munosabati ko'rsatilgan:

SIEZEN (SIZLASH)	DUZEN(SENLASH)
Unbekannte Menschen (Notanish odamlar)	Eltern(ota-ona)
Kollegen(hamkasblar)	Geschwister (aka-uka, opa-singil)
Führer und Führerinnen (rahbarlar)	Verwandten(qarindoshlar)
Lehrer und Lehrerinnen(o'qituvchilarni)	Ihren Mann oder seine Frau(erini yoki ayolini)
	Freunde(do'stlar)
	Kollegen,wenn sie längst zusammen arbeiten (anchadan beri birga ishlaydigan hamkasblar)

Ishda va o'qishda, albatta, rahbar yoki boshliqlar, ustoz va murabbiylarni xuddi o'zbeklar kabi sizlab chaqiradilar. Nemis xalqida „Temporäres Duzen“ (Vaqtichalik senlash) odati mavjud. Bunda biror shaxs ya'ni xodim o'z rahbari bilan birga sayohatga chiqsa, bazmga yoki sport klublariga borsa, vaqtincha, sayohat yoki bazm tugaguncha sensirashi mumkin. *Gefällt dir diese Orten? (Senga bu joylar yoqyaptimi?)*

Ertasiga esa xodim yana avvalgidek sizlab murojaat qilaveradi. Vaqtinchalik senlash odati, asosan, o'rtadagi tenglikni ushlab va tafovutni unutish va qulaylik yaratish uchun qo'l keladi. O'zbek xalqida esa bunday odat mavjud emas. Xodim birinchi kundan qanday muomalaga kirishgan bo'lsa, bazmlarda ham, sayohatlarda ham shunday muomalada bo'ladi.

Germaniyaning ko'pkina qishloq joylarida "sen" deb murojaat qilish holatlari shaharlarga nisbatan ko'proq uchraydi. Buning asosiy sababi qishloqda ko'pchilik insonlar bir-birini yaxshi tanishidir. O'zbek xalqida ham qishloqda hamma bir-birini taniydi va ko'proq "senlab" gaplashishadi. Bu jihatdan o'zbek va nemis odatlari o'xshashligini ko'rish mumkin.

"Sen" deb murojaat qilish insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va yaqinlikni ifodalasada, ba'zi holatlarda hurmatsizlik, mensimaslikni ham bildirib keladi. "Weil ich fünf Minuten über der Parkzeit bin! Das ist doch wirklich kleinlich. Du bist echt ein...! „ (bu avtomobillarni qo'yish joyida besh minut bo'ldim! Rostan ham arzimmas narsa. Sen haqiqiy ... ekansan!) ³.

XULOSA

Inson hayotida nutq va muloqot muhim o'rin egallaydi, shuning uchun inson, avvalo, o'z millati nutqiy etiket qoidalarini, qayerda, qanday gapirish kerakligini bilib olishi zarur. Tili o'rganilayotgan davlatlarining tili hamda madaniyatidan ham yetarlicha xabardor bo'lishi, chunki ayni paytda yoshlar zamon talabiga munosib shaxs bo'lib yetishishida chet tillari va madaniyatini bilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek va nemis nutqiy etiketida Sen/siz murojaat shakllarini qo'llashda ko'pkina farqli hamda o'xshash jihatlar mavjud. Ushbu jihatlarini bilish nemis tilini o'rganayotganlar va Germaniya borish, u yerda o'qish va ishlash istagida bo'lgan har bir odam uchun muhim o'rin tutadi.

REFERENCES

1. Кахаров, К. Ш. Узбек ва немис нуткий этикетларининг киёсий тадқиқи. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон-2020.
2. Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. – Berlin und München. – S. 588.
3. Augenstein S. Funktionen von Jugendsprache. Studien zu verschiedenen Gepsrächstypen des Dialogs Jugendlicher mit Erwachsenen. –Tübingen: De Gruyter, 1998. –S.52
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-том. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.680.